

## OGAHIYNING YEVROPA FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN TARIXIY ASARLARI

*Muslimabonu Tursunaliyeva Abduvosit qizi*  
*TDSHU doktranti (PhD)*

**Annotatsiya.** Ogahiy Navoiydek ko‘p va ho‘p sohalarda asarlar bitgan. Maqolada faqat tarixiy qo‘lyozma nusxalari chet el fondlarida saqlanib kelayotgan nusxalari haqida ma‘lumot berildi. Ushbu maqolada ularni birma bir o‘rganib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar.** “Firdavs-ul iqbol”, “Zubdatu-t-tavorix”, “Jome ul-voqeoti Sultoniy”, “Shohidi iqbol”, “Riyoz ud-davla”.

Ogahiy va Munis qalamiga mansub “Firdavs-ul iqbol” (“Baxt bog‘i” yoki “Baxt-sodat bog‘i”) asari bo‘lib, ushbu asarning to‘qqizta qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi, Rossiya Fanlar Akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari intitutida (inv. S 571 (590 oa), Ye-6-1 (590 ov), oltitasi O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. 821/1, 5364/1, 9979/1, 5071, 7422, H. Sulaymonov nomidagi fond. 275/1), yana bir nusxasi esa Xelsinki<sup>1</sup> saqlanmoqda.

Asarning Sankt-Peterburgda saqlanadigan nusxalaridan 571a (590a) raqamdagisi mahalliy O‘rta Osiyo qog‘oziga, qora siyohda nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan. Nusxa Munis va Ogahiyning avtografidir<sup>2</sup>. Qavomuddin Munirovning esa mazkur nusxa mualliflar avtografi emas, balki bir necha kotiblar tomonidan ko‘chirilgan degan taxmini xato xulosadir<sup>3</sup>. Nusxaning ochiq qolgan varaqlari ko‘p (269a,b, 270a,b,290a,b, 291a, 439a,b, 440a,b, 442a varaqlar). 442 varaqning b – betidan boshlab Munis vafotidan so‘ng, Ogahiy tomonidan yozilgan qismi boshlanadi. Nusxa namlikdan zarar ko‘rgan. Asarda hoshiyalar ko‘p ko‘zga tashlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat. O‘lchovi 14,5x24,5 sm<sup>4</sup>.

Mazkur fondda saqlanayotgan E6- VIII (590oa) raqamidagi ikkinchi nusxa xati qora siyoh bilan O‘rta Osiyo qog‘oziga ko‘chirilgan, sarlavhalari qizil siyohda bo‘lib, matn ham qizil ramka ichiga olingan. Asarni ko‘chiruvchi esa Mullo Nur Niyoz xalifa ibn mulla Muhammadniyoz xatib bo‘lib, u bu nusxani 1856 – 57 yillarda ko‘chirgan. Nusxa yaxshi saqlangan bo‘lsa ham, uning 150 ta varag‘i namda qolganligi seziladi. Asarning hajmi 263 varaq, o‘lchovi 27x48 sm<sup>5</sup>.

Ushbu asarni yana bir nusxasini Ogahiyshunos olimi G.Xalliyeva Filandiya davlatining kutubxonasida mavjud ekanligi aniqlagan.

Ogahiyning qalamiga mansub galdagi tarixiy asar “Zubdatu-t-tavorix”ning besh qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan bo‘lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida (sobiq Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limida) Ye 6 – V (590b) ashyo raqami ostida, yana biri Sankt-Peterburgdagi Rossiya

<sup>1</sup> Хельсинкидаги нусха ҳақида қаранг: Halèn H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature. London–Malmö, 1979. –P. 100.

<sup>2</sup> Буни Ю. Брегель ҳам исботлаб беради. Қаранг: Shir Muhmmad Mirab Munis And Myhmmad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Introduction.

<sup>3</sup> Муниров Қ. Кўрсатилган асари. – Б.37.

<sup>4</sup> Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. “Описание тюркских рукописей Институтанародов Азии”. I. – С.106-108.

<sup>5</sup> Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. “Описание тюркских рукописей Института народов Азии”. I. – С.106-108.



Milliy kutubxonasida (sobiq S. Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasida) T.N.S. – 22 ashyo raqami bilan, uchta O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (821/111, 5364/111, Hamid Sulaymonov fondi, 275/11) saqlanadi. Mazkur qo‘lyozmalar bilan shug‘ullangan matnshunos Fathulla G‘anixo‘jaev ma’lumotlariga ko‘ra, ulardan Ogahiy hayot paytida ko‘chirilgani Sankt-Peterburg Sharq qo‘lyozmalari institutida Ye 6 – V (590 ob) raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozmadir. Darhaqiqat, qo‘lyozma qora (sarlavhalari qizil) siyohda nasta’liq xati bilan O‘rta Osiyo qog‘oziga ko‘chirilgan, matn jadval ichiga olingan. 52 varaq (387b- 439a), o‘lchami: 49 x28,5; 35,5x17,5; 2512. L.V.Dmitrieva, A.M.Muginov, S.N.Muratovlar tuzgan “Описание тюркских рукописей Института народов Азии” katalogida “Zubdatu-t-tavorix”ning Sankt-Peterburg nusxasi haqida ancha mufassal ma’lumot berilgan. Jumladan, “Zubdatu-t-tavorix”ning ikki qism (maqola)dan tarkib topgani, birinchi bo‘limda Rahimqulixonning tavalludidan taxtga chiqqunga qadar sodir bo‘lgan hodisalar, ikkinchi bo‘limda esa uning hukmronlik davri voqealari qalamga olingani qayd etilgan. Matnshunos F.G‘anixo‘jaev tuzgan “Ogahiy asarlari tavsifi” katalogida mazkur qo‘lyozma tavsifida shu manbaga tayanilgan bo‘lsa-da, bu nusxa ko‘chirilgan sana 1273/1856 yil, deb ko‘rsatilgan. Aslida esa asar 1274/1857-58 sanada Xivada kitobat qilingan. “Zubdatu-t-tavorix”ning boshlanishi haqidagi ma’lumot har ikkala tavsifda bir xil keltirilgan, biroq oxiri “Описание тюркских рукописей...”da

قىلغاي شاداب وصولددين مرادات و كامياب حصولددين مقاصد همه

tarzida berilgan bo‘lsa, F.G‘anixo‘jaev katalogida

ايت سرفراز تاجيددين كرمينك

ايت ممتاز ايچيدا اهلى روضه

bayti asarning oxiri sifatida zikr etiladi hamda “Asarning keyingi nusxalarida ham boshlanishi va oxiri bir xil”, deya ta’kidlanadiki, bu ilmiy haqiqatga muvofiq kelmaydi. Binobarin “Zubdatu-t-tavorix”ning O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan va biz ushbu nashr uchun asos manba etib tanlagan nusxasining oxiri ham “Описание тюркских рукописей...”da tavsiflangan qo‘lyozma bilan aynan bir xildir.

“Jome ul-voqeoti Sultoni” (“Sultonlik voqealarini jamlovchi”) tarixiy asari 1856 yili yozib tugallangan bo‘lib, unda uch nafar Xiva xoni – Muhammadaminxon (1846–1855), Sayid Abdullaxon (1855) va Qutluqmurudxon (1855-1856) davri tarixi hikoya qilinadi. Mavjud tarixnavislik an’anasiga muvofiq, asarda xonlarning harbiy yurishlariga keng o‘rin ajratilgan. Ayni paytda, biz bu yerda qo‘shni davlatlar bilan elchilik almashish, turli shaxslarning mansablarga tayinlanishi, tavallud va vafot sanalari, xonlikda amalda oshirilgan bunyodkorlik ishlari (madrasalar qurilishi, kanallar chiqarish va hokazo) va boshqa qator mavzularga doir ma’lumotlarni topishimiz mumkin.

Matn asarning va Toshkentda saqlanayotgan ikkita mavjud qo‘lyozmasi asosida tuzilgan. Shuni ta’kidlash joizki, barcha qo‘lyozmalarni sinchiklab tadqiq qilgan N. Toshev O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Toshkent nusxasi Ogahiyning dastxati ekanligini isbot qildi. Bu hol esa matnning ishonchliligini oshirishi barobarida Ogahiy ijodini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun ham juda muhimdir.

“Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asar Muhammad Rahimxon soniy davriga bag‘ishlangan bo‘lib, 1865-1873 yillar voqealarni yozish bilan uzilib qolgan, ayrim sahifalarida suv dog‘lari bor, Qo‘qon qog‘oziga, sarlavhalari qizil siyoh bilan yozilgan, qizil charm muqovada, ko‘chiruvchining ismi va yili ko‘rsatilmagan, 227 varaq, 14-25 sm o‘lchamda. Asarda faqat Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonlarini Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan. Ushbu asar nusxasi faqat Sankt Peterburgda mavjud holos.

“Riyoziy ud-davla” (“Davlat **riyoziatlari**”) 1825 yildan 1842 yilgacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu asar Ogahiy tarafidan hijriy 1260 (milodiy 1844) yilda yozilgan.



Ogahiy bu asarni yozishda o'sha davr tarixchilarining an'anasiga muvofiq hamd va na't bilan boshlaydi. Dastlab o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Xiva xoni Olloqulixonga maqtoqlar bag'ishlaydi. Undan so'ng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilishiga sababchi bo'lgan shaxslar haqida gapiradi. So'ngra Olloqulixonning tug'ilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni bayon etadi.

Asar orqali Ogahiyning hayot yo'li va ijodiy faoliyatini ham o'rganish mumkin. Bu asarning bir necha nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida, shuningdek bir necha nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Ogahiy asarlari faqat bizni mamlakatimizda balki Rossiya, Filandiya kabi jahon mamlakatlarida ham qo'lyozma nusxalari mavjud. Ularni qay shaklda ekanligi esa bugungi kunda etapma etap o'rganib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хельсинкидаги нусха ҳақида қаранг: Halèn H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature. London–Malmö, 1979. –P. 100.
2. Otajanova, M. (2022). Mythopoetic interpretation in the artistic work. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(7), 98-108.
3. Ю. Брегель Shir Muhmmad Mirab Munis And Myhmmad Riza Agahi. *Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Introduction.*
4. Mamatkadirovna, K. G. (2022). Innovative Educational Technologies in the Educational Process. *Eurasian Research Bulletin*, 15, 108-110.
5. Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. “Описание тюркских рукописей Институтанародов Азии”.
6. Karimova, G. M. (2021). Some comments on complete grammar. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 200-203.
7. Мунироқ Қ. “Мунис,Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари”. – Тошкент, 1960; Шу муаллиф. *Хоразмда тарихнавислик.* – Тошкент, 2002.

